

O'zbekiston va Turkiya yetakchilari ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalarini muhokama qildilar



Budapesht shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish jarayonida faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'smoqda. Joriy yilning 1-iyulidan boshlab Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim kuchga kirdi. Qo'shma korxonalar soni 2,5 mingdan oshdi.

O'zbekiston va Turkiya rahbarlari ikki mamlakat yetakchi kompaniyalarining ustuvor tarmoqlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasidagi rejalarini olqishladilar.

Ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasi, shu jumladan qo'shma Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishiga hamda Turkiy davlatlar tashkiloti va Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining joriy yilda o'tkazilishi mo'ljallangan sammitlariga tayyorgarlik masalalari ko'rib chiqildi.



Manba